




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasini rivojlantirish

**2022- YIL
YANVAR-IYUL**

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


Qurilish ishlari hajmi,
mlrd. soʻmda



2022- yilning yanvar-iyul oylarida, Oʻzbekiston Respublikasida jami **70685,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,3%** ni tashkil etdi.



Yillar kesimida oʻsish surʼati
yanvar-iyun oylari boʻyicha



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz-oʻzidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir

O'zbekiston Respublikasi qurilish ishlari

Hududlar kesimida, mlrd. so'mda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyulda

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 67,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,6 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 104,3 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,7 foiz ulushni va 134,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari Hajm, mlrd. so'm



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-iyulda

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **67,7 %** i yoki **47887,5**mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 15060,1mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 31,5% ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 22468,9 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 46,9 % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 10358,5 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 21,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyulda

| | Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish | O'sish sur'ati, % da |
|----------------------------------|---|----------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi* | 47887,5 | 99,1 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1906,2 | 92,6 |
| <i>viloyatlar:</i> | | |
| Andijon | 2649,7 | 108,5 |
| Buxoro | 3079,8 | 103,5 |
| Jizzax | 1655,6 | 116,7 |
| Qashqadaryo | 2454,0 | 102,1 |
| Navoiy | 2353,8 | 109,2 |
| Namangan | 2610,8 | 113,2 |
| Samarqand | 3178,5 | 95,6 |
| Surxondaryo | 2740,4 | 91,1 |
| Sirdaryo | 925,8 | 88,1 |
| Toshkent | 2904,4 | 71,9 |
| Farg'ona | 3121,6 | 104,2 |
| Xorazm | 1885,4 | 100,5 |
| Toshkent sh. | 10091,5 | 101,9 |

**hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

2022- yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (10091,5 mlrd.so'm), Samarqand viloyati (3178,5 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (3121,6 mlrd. so'm) va Buxoro viloyatida (3079,8 mlrd. so'm) qayd etildi.


2022- yil yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 27,1 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,5 % punktga kamayib, 47,8% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 25,1 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

Bino va inshootlarni qurish

119,4%

Yirik qurilish tashkilotlari

96,2%

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

103,5%

Norasmiy sektor



Bino va inshootlar qurilishi

2022- yil yanvar-iyul uchun

Hududlar va oylik ko'rsatkichlari


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati

(olti oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyati (2021- yilga nisbatan 130,8 %), Navoiy viloyati (2021- yilga nisbatan 118,8%), Surxondaryo viloyati (2021- yilga nisbatan 113,6%) va Toshkent sh (2021- yilga nisbatan 111,8%)ga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 25,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 74,6 % (4,2 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etib, o'zgarishsiz qoldi.



O'sish sur'ati

Fuqarolik obyektlarini qurish



89,2%

Yirik qurilish tashkilotlari

110,5%

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

171,6%

Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlar va oylik ko'rsatkichlari


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati

(olti oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand viloyati (2021- yilga nisbatan 259,6 %), Toshkent viloyati (2021- yilga nisbatan 142,4 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2021- yilga nisbatan 113,0%) va Andijon viloyati (2021- yilga nisbatan 105,1%)ga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari


Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi va 22,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 77,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.



O'sish sur'ati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



145,1%


Yirik qurilish tashkilotlari

132,0%


Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari Hududlar va oylik ko'rsatkichlari

Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (olti oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyati (2021- yilga nisbatan 265,9 %), Toshkent viloyati (2021- yilga nisbatan 212,6 %), Surxondaryo viloyati (2021- yilga nisbatan 159,4 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi(2021- yilga nisbatan 151,9%)ga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-iyul oylari uchun korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yil yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, ulushi %




2022- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 26,2 % i to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 113,3 % ni tashkil etgan holda 18549,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yil yanvar-iyul oylarida bajarilgan ishlar Hududlar va oylik ko'rsatkichlari

Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd. so'm va foizda)

Hajm va o'sish sur'ati



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,2 % i), Navoiy viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 19,7 % i) va Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 19,2% i)ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2022- yil yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi



2021- yil yanvar-iyul

2022- yil yanvar-iyul


2022- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,7 % i to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 104,2 % ni tashkil etgan holda 40101,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2022- yil yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar *Hududlar va oylik ko'rsatkichlari*

Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd. so'm va foizda)

Hajmi va o'sish sur'ati



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (9998,7 mlrd.so'm yoki umumiy ko'rsatkichning 57,8 % i), Toshkent viloyatida (3736,2 mlrd.so'm yoki 58,8 % i), Samarqand viloyatida (33433,5 mlrd. so'm yoki 73,2% i) qayd etildi.

2022- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor


Norasmiy sektor, ulushi foizda



2021- yil yanvar-iyul

2022- yil yanvar-iyul

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 17,0 foizni yoki 12034,7 milliard soʻmni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyuliga nisbatan oʻsish surʻati 103,6 foizga yetdi. Shundan 8729,0 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri keladi, 2021- yilning yanvar-iyuliga nisbatan oʻsish surʻati 104,3 foizni, jismoniy shaxslar tomonidan qurilishi 1629,5 milliard soʻmni, oʻsish surʻati esa 91,2 foizni tashkil etdi. 1676,2 mlrd.soʻmlik taʼmirlash ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 113,8 foizni tashkil etdi.




2022-yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlar va oylik ko'rsatkichlari

Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Buxoro viloyatida (658,0 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-iyuliga nisbatan o'sish sur'ati 119,4 % tashkil etdi), Qashqadaryo viloyatida (889,7 mlrd. so'm yoki 116,1%) Surxondaryo viloyatida (893,4 mlrd. so'm yoki 113,9 %) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **2237,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **68448,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,2 %** va **96,8 %** ni tashkil etdi.



● Davlat mulki ● Nodavlat mulk

2237,0

mlrd. so'm

Davlat mulk

68448,2

mlrd. so'm


Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Surxondaryo viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,7 foizi), Jizzax viloyatida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,1 foizi) va Samarqand viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,1 foizi) qayd etildi.


Davlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yil yanvar-iyulda


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd. so'm va foizda)



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Jamiga nisbatan ulushi




Nodavlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyulda


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)

| | | |
|--------|---------|------------------------|
| 106,4% | 2887,4 | Qoraqalpog'iston Resp. |
| 107,9% | 3560,4 | Andijon |
| 100,9% | 4337,2 | Buxoro |
| 118,3% | 1970,4 | Jizzax |
| 108,4% | 3861,9 | Qashqadaryo |
| 124,6% | 2903,4 | Navoiy |
| 112,3% | 3355,9 | Namangan |
| 111,4% | 4600,6 | Samarqand |
| 104,7% | 3643,2 | Surxondaryo |
| 103,3% | 1421,0 | Sirdaryo |
| 109,4% | 6198,7 | Toshkent |
| 104,2% | 4129,1 | Farg'ona |
| 104,3% | 2314,7 | Xorazm |
| 111,1% | 16934,0 | Toshkent sh. |
















Yillar kesimida o'sish sur'ati



Jamiga nisbatan ulushi



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

| Hududlar kesimida | <i>birlikda</i> | o'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan ulushi, %da |
|---|-----------------|-------------------------|--------------------------------|
|  O'zbekiston Resp. | 45612 | 103,4 | 100,0 |
|  Qoraqalpog'iston Resp. | 2468 | 99,6 | 5,4 |
|  Andijon | 3305 | 99,6 | 7,2 |
|  Buxoro | 2950 | 102,5 | 6,5 |
|  Jizzax | 2120 | 99,4 | 4,6 |
|  Qashqadaryo | 3430 | 103,3 | 7,5 |
|  Navoiy | 1754 | 107,3 | 3,8 |
|  Namangan | 2406 | 98,0 | 5,3 |
|  Samarqand | 3441 | 99,5 | 7,5 |
|  Surxondaryo | 2932 | 106,1 | 6,4 |
|  Sirdaryo | 1624 | 102,8 | 3,6 |
|  Toshkent | 3996 | 104,3 | 8,8 |
|  Farg'ona | 3791 | 151,2 | 8,3 |
|  Xorazm | 2082 | 102,8 | 4,6 |
|  Toshkent sh. | 9313 | 106,8 | 20,4 |

2022- yil 1- avgust holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasidagi bo'limlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar shuni ko'rsatdiki:

- bino va inshootlar qurilishi 56,7% ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 11,6 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 121,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 31,7%, o'sish sur'ati 98,8 % ni tashkil etdi.

